# Mavzu: **Said Ahmad“Ufq” romani**

Adabiyot

Abdukadirova M.M.



# Said Ahmad
# “Ufq” romani

**(1920-2008)**

- **Said Ahmad Husanxo‘jayev 1920-yilning 10-iyunida Toshkent shahrining «Samarqand darboza» mahallasida tug‘ilgan.**

# Tinib-tinchimas bola

- **Tabiatan qiziquvchan, tinib-tinchimas Said Ahmad adabiyotga kirib kelguncha juda ko‘p sohalarda o‘zini sinab ko‘rdi:**

- *agitplakatlar yozdi;*
- *artist bo‘lishga urinib ko‘rdi;*
- *doktorlik maktabida o‘qidi;*
- *qurilish texnikumida tahsil oldi;*
- *rassomlik maktabiga qatnadi;*
- *mashhur fotochi Rensonga shogird tushdi;*
- *gazetalarga xabarlar yozdi.*
- **VA NIHOYAT YOZUVCHI BO`LDI!**

# BOBOLARI, OTA-ONASI, AKALARI HAQIDA

TIIAME

- Toshkentliklar Said Ahmadning bobosini «Dadaxo'ja duma» deb ulug'lashar, chunki u kishi sho'rolar to'ntarishidan ham oldin shahar dumasining deputati bo'lgan.
- Onasining otasi G'ulomxon toshbosma matbaa egasi bo'lgan.
- Otasi Husanxo'ja Dadaxo'ja o'g'li rus-tuzem maktabini tugatgan, rus tilini mukammal biladigan, turkiy dunyoning mashhur ma'rifatchisi Ismoilbek Gaspirali bilan yaqinligi bor edi.
- Katta akasi Imomxon o'zbek stenografiyasining asoschisi hisoblanadi.
- Keyingi akasi Zuhurxon esa, irrigatsiya bo'yicha O'zbekistonning ilk professori edi.

# Ilk asar

- Bo‘lajak yozuvchining ilk mashqi - **«Ishqiboz»** nomli hajviy hikoyasi o‘n olti yoshlarida «Mushtum» jurnalida chop etilgan.
- (1936-yil)

# MEHNAT FAOLIYATI

- **«Mushtum» jurnalida** *(1938-1939, 1955-1957);*
- **«Yosh leninchi» gazetasida** *(1940-1941);*
- **O‘zbekiston Davlat radio qo‘mitasida** *(1941-1943);*
- **«Qizil O‘zbekiston» gazetasida** *(1943-1947);*
- **«Sharq yulduzi»** *(1948-1950);*
- **Qator yillar O'zbekiston yozuvchilar uyushmasida adabiy maslahatchilik qildi.**
- **So`ng uyushmaning nasr bo`limiga boshchilik ham qildi.**

# Qatag`on

- O‘tgan asrning 50-yillari boshlarida yozuvchi ko‘plab ziyolilar qatorida qatag‘onga uchrab, ***«xalq dushmani» degan tuhmatlar bilan qamaladi.***
- U «aksilsho‘raviy millatchilar guruhi a‘zosi, zararli g‘oyalar targ‘ibotchisi» sifatida ayblanib, *Qozog‘istonning Qarag‘anda viloyati Jezqazg‘an lagerida* bo‘ladi.
- Uning «Qorako‘z majnun» (2002) hikoyalar to‘plami bu haqdagi achchiq haqiqatni ro‘y-rost ifodalaydi.

# Ilk kitob



- **Said Ahmadning birinchi kitobi «Tortiq» nomli hikoyalar to‘plami bo‘lib, 1940-yilda nashr etilgan.**

# ASARLARI

## Hikoyalar to‘plami:

- «Er yurak» (1942);
- «Farg‘ona hikoyalari» (1948);
- «Muhabbat» (1949);
- «Cho‘l oqshomlari»
- «Odam va bo‘ron».

## Qissalari:

- «Qadrdon dalalar» (1949);
- «Hukm» (1958).

## Romanlari:

- 1964-1974-yillar oralig`ida “Ufq” trilogiyasini yozdi.
- 1988-yili adibning «Jimjitlik» romani nashrdan chiqadi.

## Dramalari:

- Said Ahmad 70-80-yillarda o‘z hikoyalari asosida «Kelinlar qo‘zg‘oloni», «Kuyov» nomli pyesalar yozadi.

# Istiqlol yillarida

- «Xandon pista» (1994);
- «Bir oʻpichning bahosi» (1995) hajviy toʻplamlari.
- «Yoʻqotganlarim va topganlarim» (1998);
  «Qorakoʻz majnun» (2001);
- «Kiprikda qolgan tong» (2003) kitoblari;
- 3 jildli «Tanlangan asarlari» (2000) chop etildi.

# ADIB HIKOYALARIDA:

- Oybekning psixologik tasvir mahorati,
- G‘afur G‘ulom yumori,
- Abdulla Qahhor bayonidagi ixchamlik mujassamdir.







BILIB OLING!

# "Kelinlar qo`zg`oloni" kinofilmi haqida

- **Suratga olingan vaqti:** 1985-yilda "O`zbekfilm" kinostudiyasi tomonidan suratga olingan.
- **Rejissor:** Melis Abzalov.
- **Bosh rol** – qaynona rolida Tursunoy Jafarova.







# E'TIROF

- **Said Ahmad O'zbekiston xalq yozuvchisi (1980).**
- **O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi (1968).**
- **Hamza nomidagi Davlat mukofoti sovrindori**
- **«Buyuk xizmatlari uchun» (1997).**
- **«Do'stlik» (1996) ordenlari bilan taqdirlangan.**
- **"O'zbekiston Qahramoni" (1999).**

# XOTIRA MANGU





- 2013-yil 10-iyun kuni Said Ahmad va taniqli shoira Saida Zunnunova xotirasiga Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy bog‘ida haykal o‘rnatildi.

# “UFQ” TRILOGIYASI

- «Ufq» romani nafaqat Said Ahmad ijodida, balki adabiyotimizda ulkan voqea bo'lgan uch qismli asar bo'lib, roman-trilogiya hisoblanadi. Asarda xalqimizning Ikkinchi jahon urushigacha, urush davri, urushdan so'nggi yillardagi qismati qalamga olingan.



- Birinchi kitob **«Qirq besh kun»;**
- Ikkinchi kitob **«Hijron kunlarida»;**
- Uchinchi kitob **«Ufq bo'sag'asida»** deb ataladi.

- Trilogiyada o'sha yillari xalq boshiga tushgan mashaqqatli kunlar, musibatlar, ularni katta bardosh bilan yengib o'tgan kishilar adib tomonidan zo'r mehr va ilhom bilan tasvirlangan.

# QOCHOQ

**Tursunboy shu to'qayda. Uning qamishlar orasida yashirinib yurishini Jannat xoladan boshqa hech kim bilmasdi…**



# BILIMINGIZNI SINANG!

- 1. Said Ahmadning qanday asarlarini o`qigansiz?
- 2. Said Ahmadning hikoyalarini o`qiganmisiz?
- 3. "Ufq" trilogiyasi qanday kitoblardan iborat?
- 4. "Qochoq" deb nomlangan parcha trilogiyaning qaysi kitobidan olingan?
- 5. Tursunboyning ota-onasi kim edi?
- 6. "... ota diydoridan, ona mehridan, yor birodarlari davrasidan olisda, chaqirsa ovoz yetmaydigan joyda quvg'in bo'lib, olamdan o'tgan..." yigit kim?
- 7. Kimning qaysi asari Abdulla Qahhor tomonidan "... odamga quvvat beradigan, uning boshini "toshdan"qiladigan ishonch barq urib turgan haqiqiy hayot manzarasidir" deb ta'riflangan?

# Uyga vazifa:

- 1. Said Ahmad ijodiga oid 15 ta yopiq test tuzish.
- 2. “Hijron kunlarida” kitobini o`qish.